

MUSIQA O‘QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI: INTERAKTIV METODLAR VA UMUMDIDAKTIK TAMOYILLAR

Rametullaeva Gulparshin

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute, Pedagogika fakulteti Musiqa talim yo'nalishi, 4-kurs talabasi

ARTICLE INFO.

Kalit so‘zlar:

Musiqa madaniyati, didaktik nazariyasi, sistemalilik, ilmiylik va davomiylik printsiplari, ongliklik, aktivligi printsiplari, ko‘rgazmalilik vosita.

Annotatsiya

Mazkur maqola musiqa o‘qitishning eng muhim asoslaridan bo‘lgan metod va tamoyillar haqida ma’lumotlar jamlagan. Shuningdek, musiqa darslari uchun belgilangan umumdidaktik printsiplar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari chuqur tahlil etilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Musiqa madaniyati darslari pedagogikaning didaktik nazariyasi va printsiplari asosida tuziladi. Mazkur printsiplar o‘qituvchi hamda o‘quvchi tomonidan bajariladigan barcha ta’lim asoslari dars mazmunini metodlari va darslarning tuzilishidagi asosiy talablar va uning yo‘nalishlarini belgilab beradi. Musiqa madaniyati darslarining didaktik printsiplari besh turdan iborat:

1. Musiqa ta’limi va tarbiyasida sistemalilik, ilmiylik va davomiylik printsiplari.
2. Darsda o‘quvchilarning ongliklik va aktivlik printsiplari.
3. Musiqa madaniyati darslarida ko‘rgazmalilik printsiplari.
4. O‘quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi printsiplari.
5. Musiqa darslarida bilim va malakalarning mustaxkamligi printsiplari.

Mazkur printsiplar asosan, o‘quv materiallarni qo‘llash, musiqa darsini mazmunini va rejasini tuzish jarayonida qo‘llanadi. Yuqoridagi, qayd etilgan umumdidaktik printsiplar bir - biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, musiqa darsini davlat ta’lim standartiga muvofiq milliy xususiyatlarini hisobga olgan hoida, uzluksizligini va uzviyligini asos qilib musiqa faoliyatini izchilligini ta’minlaydi. Musiqa ta’limi va tarbiyasida sistemalilik, ilmiylik va davomlilik printsiplari har bir darsda o‘zining tuzilishi va mazmuni bilan ilmiy asosida tashkil topishi lozim. Musiqa haqidagi bilimlar doirasi, musiqa ta’limi va tarbiyasining asosiy omildir. Unda insoniyat yaratgan musiqaga oid qoidalar, xulosalar, umumlashgan musiqaviy tajribalar o‘z aksini topgan. Ularni o‘zlashtirish musiqa amaliyoti yo‘lida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish demakdir. Dars jarayonida o‘quv materiallarini bolalarning bilim tajribasiga mosligi. Bolalar ovozining rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish, nota qonuniyatlarini to‘g‘ri o‘rgatish, bolalarning fikriy qobiliyatiga mos ravishda tahlil etish darsining ilmiylik printsiplarini tashkil etadi. Ilmiylikni, sistemaliksiz amalga oshirish qiyin. Darsning barcha o‘quv faoliyati hamda keyingi darslarning o‘zaro mantiqiy bog‘lanishi sistemalik asosini tashkil etadi. Kuylash va tishlash uchun asarlarni bilim va malakadarajasiga ko‘tarib, soddadan murakkabga, noma’lumdan ma’lumga qarab

o'zlashtirib borish printsiplari muayyan tartibga mos bo'lib, sistemalilik demakdir. Darsning har bir faoliyati o'z navbatida, har bir darsning mantiqiy davomi bo'lib, pedagogik maqsadlari tobora amalga oshirishi davomiilik printsiplari demakdir.

Darsda o'quvchilarni onglilik va aktivligi printsiplari didaktikaning etakchi printsiplaridandir. Chunki, bilimni o'zlashtirish o'quvchining aqiiy faoliyatiga asos bo'lgan bilish jarayoniga bog'liqdir. Musiqa idroki kishining hayotiy tajribasini boyitadi, real voqealarni badiiy his etib, bilish, fikrlash qobiliyatini o'stiradi. Mazkur malaka va ko'nikmaning shakllanishi bola ongining uzoq rivojlanish jarayonini talab etadi. Buning uchun, bolaning o'quv materiallari ongli ravishda bilib o'zlashtirishi, bilim jarayonini aktivligini vujudga keltiradi. Ma'lum musiqa asarini kuylab yoki tinglab o'zlashtirish va undan badiiy estetik, zavqlanib, idrok etishda, bolaning eng avvalo, diqqat e'tiborini jalb eta bilish unda qiziqish uyg'ota bilish, onglilik va aktivlikni vujudga keltiradi. Musiqani ongli idrok etish va navbatida badiiy ohang va mantiqiy jihatdan xotirada turg'un saqlanishni talab etadi. Musiqa darslarida onglilik va aktivlik ayniqsa, vokal -xor malakalarini shakllantirilishi uchun zarurdir. Xor bo'lib qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi, faoliyatlarida ham, onglilik va aktivlik musiqani nazariy va amaliy jihatlarini to'g'ri bilish va o'zlashtirishni osonlashtiradi.

Musiqa darsida ko'rgazmalilik printsiplari. Musiqa tarbiyasida musiqaning o'zi o'ziga ko'rgazmali vositadir. Chunki, u ko'z bilan emas, balki quloq bilan idrok etiladi. Musiqa tinglashda ham, asar tahlilida ham, ohang ko'rgazma sifatida ijro etib ko'rsatiladi. o'qituvchining o'zi, nutqi, ijrosi ham asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, texnik vositalar, ko'rgazmali kartochkalar, grafik yozuvlar, rasmlar, nota yozuvlari ham, musiqa darsida ko'rgazma sifatida muhim rol o'ynaydi. O'quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi printsiplari. Mazkur printsiplarni tanlab olingan o'quv materiallari va mazkur metodik materiallar asosida dars mazmunini tuzish jarayonida qo'llaniladi. Bunda har bir sinfning umumiy bilim va malaka darajasi hisobiga olinishi shart. Dastur asosida har bir sinfning bilim va malakalari hisobiga olingan holda, musiqa darsining yillariga yillik kalendar mavzuli rejasini tuziladi. Kalendar mavzuli ish reja bir yilda ikki marta, o'quvchilarning yosh xususiyati, musiqiy o'quvi, yangi qo'shiqlar, musiqa tinglash uchun asarlar, musiqa savodidagi o'quv materiallari, dars faoliyatlariga qarab tuziladi.

Musiqa darslarida bilim va malakalarining mustaxkamligi. Mazkur printsiplarni amalga oshirishining eng asosiy sharti, yuqorida bayon etilgan to'rtta printsiplarga jiddiy amal qilishdan iboratdir. Birinchidan bilim va malakalarning chuqurligi, mustaxkamligi va hayotiylikini ta'minlash lozim, ya'ni mazkur asami va uning ijro uslubini, madaniy hayotimiz uchun zarur ekanligi haqida bolalarda ishonch hosil qilinishi lozim. Ikkinchidan asarlarini tanlashda quyidagilarga amal qilish kerak:

- a) asarning bolalarni ma'naviy va axloqiy tarbiyasini uchun mosligi.
- b) musiqa ta'limining xususiyati.
- c) sinfdagi barcha bolalarni mazkur asarga qiziqitira olish va to'la o'zlashtirishga erishish.

Uchinchidan darsda olinadigan bilimlar doirasi va malakalarini amaliyotda takrorlash va mustaxkamlash. Masalan: Qo'shiklarni jumlagacha bo'lib o'rgatish va keyingi darslarda mustaxkamlab takrorlash. To'rtinchidan musiqa darslarida har bir yangi bilim elementini dars faoliyatida to'liq o'zlashtiriladi va keyingi darslarda keng qo'llanilib, doimiy bilimga aylantiriladi. Xulosa, qilib aytganda, pedagogikaning umumdidaktik printsiplari, musiqa madaniyati darslarida katta ahamiyatga ega bo'lib, musiqani hayot bilan bog'lashda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa madaniyatini darslari jarayonida o'quvchilarga bilim berishda zamonaviy yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va ularni o'quv jarayoniga loyihalashtirish mexanizmlari ochib berilmoqda. Bu borada musiqa pedagogikasi bo'yicha taniqli olim Dildora Karimovaning «Musiqiy pedagogik mahorat asoslari» muammosi bo'yicha ilmiy – izlanishlarini olib borib, Respublikamiz umumta'lim maktablari musiqa darslari jarayonida to'liq tahlil etildi. Bunda har bir o'quvchining musiqiy – hissiy qabuli va emosional idroki masalasi bosh masala qilib qo'yilgan. Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darslari, «Musiqa fani»

darsliklar hamda o'quvchilarini ma'naviy tarbiyalashda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mazmun, shakl va metodlari ham ishlab chiqilgan.

Pedagogik amaliyotda yangi yo'l va vositalarini jadal tatbiq etilayotganligini kuzatish mumkin. Biroq ba'zi ta'lim shakl va faol usullar o'rniga bo'linmas ta'limiy texnologiyalar zarur. Lekin ta'limiy jarayonni texnologiyali loyihalashtirish va rejalashtirishni, faqat texnologik bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi bajara olishi mumkin. Chunki, musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar orqali ma'naviy tarbiyalash jarayoni dars mashg'ulotlari orqali amalga oshadi. Ular o'z ifodasini an'anaviy va noan'anaviy o'qitish uchun majmualari texnik vositalarni yaratishda topgan. Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiya o'qitishning texnik vositalari yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmaydi, balki bu ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, ishlab chiqish hamda usul va materiallarni qo'llash, shuningdek qo'llanilayotgan usullarni baholash yo'li orqali ta'lim jarayonining asoslari va uni maqbullashtirish yo'llarini ishlab chiqishni aniqlash maqsadiga qaratilgandir.

Yuqorida keltirilgan barcha ma'lumotlarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlashimiz lozimki, barcha ta'lim va tarbiya ishlarini pedagogik texnologiya yo'liga o'tkazish, maktab amaliyoti pedagogik jarayonini ixtiyoriy qurish va uni amalga oshirishdan keskin burilishini anglatadi. Shuning uchun ham biz o'qituvchilar bu borada ilg'or pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga loyihalashtirib, uni keng tadbiq etishimiz darkor. Dars jarayonida o'quvchilarga pedagogik texnologiyani va ta'lim-tarbiyani birgalikda olib borish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi o'quvchilarni ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatlarini shakllantirishi, ularda milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishini ta'minlashi zarur.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Azizxo'jayeva N. «Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat» Toshkent:, O'qituvchi», 2006 yil.
2. Karimova D. «Musiqiy pedagogik mahorat asoslari»Toshkent., «Moliya» , TDPU., 2008 yil.
3. O.Fayzievva boshqalar.«O'zbekistan maktablarida musiqiy nafosat tarbiyasini tashkil etish buyicha metodik qo'llanma». - T.: «Navoiy azot» nashriyoti, 1992 y.
4. G.M.Sharipova. «Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitish uchun metodik qo'llanma». -T .: RTM nashriyoti, 2001 yil.